

INGLIZ VA O‘ZBEK ADABIYOTIDA TABIATNING BADIY TASVIRI

Kulmuhammedova Lobar Anvarjonova

SamDUUF Maktabgacha ta’lim,
Pedagogika va tillarni o‘qitish fakulteti asisstent o‘qtuvchisi

Bozorboyev Sirojiddin Anvar o‘g‘li

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali Xorijiy til va adabiyoti
yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Ingliz va O‘zbek adabiyotida tabiatning badiiy tasviri asarlar misolida to‘liq bayon qilinadi va bir-biriga taqqoslanadi.

Kalit so‘zlar: Adabiyot, badiiy tasvir, peyzaj tabiat, natura, manzara.

ABSTRACT

In this article, the artistic depiction of nature in English and Uzbek literature is described and compared to each other.

Keywords: Literatura, nature, landscape, artistic image.

Adabiyot — ko‘ngil ishi, ilhom samarasi. Tuyg‘usiz, ilhomsiz yozilgan asar changlanmagan gulga o‘xshaydi meva tugmaydi. Ko‘ngil rozi bo‘lgan asargina kitobxonning ko‘ngliga yo‘l topadi, kitobxonning ko‘nglida meva tugadi. Quyosh, havo, yer, suv barcha jonvor va ko‘katlarga ozuqa berganidek, xalq hayoti yozuvchiga ilhom beradi. Yozuvchi qanchalik iste’dodli, uning qalam tutgan qo‘li qanchalik tajribali bo‘lsa, xalq undan shunchalik chuqurroq minnatdor bo‘ladi, uning ijodini, umuman, Adabiyotni shunchalik chuqurroq hurmat qiladi. Bu fikrlarni Abdulla Qahhor keltirib o‘tadi. Shu o‘rinda aytish joizki, asarlarda tabiatni tasvirlash peyzajda aks etadi. Peyzaj (fransuzcha paysage -mamlakat, joy) 1)rassomlik (rangtasvir, grafika) va haykaltaroshlik (relyef)da tabiatni aks ettiruvchi janr yoki shu janrda yaratilgan alohida asar 2)adabiyotda badiiy so‘z vositasidagi tabiat tasviri, ifodasi. Peyzaj- yozuvchining o‘z asarida tanlagan ifoda usuli va ijodiy uslubi bilan bog‘liq holda turlicha vazifalarni bajarishi mumkin. Tabiat manzarasi tasviri orqali yozuvchi o‘zining yurtiga, Vataniga, ona tabiatga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi. Tabiat tasviri syujetning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, asarning g‘oyaviy, estetik quvvatini oshirish, syujet rivojini tezlatish yoki sekinlashtirish, qahramonning ichki dunyosini ochish kabi vazifalarni bajaradi. Bu bilan peyzaj badiiy asarda ishtirok etuvchi personajlarni yanada to‘laqonli

ifodalashga yordam beradi. Ingliz Adabiyotida Juda ko'p shoir va yozuvchilar peyzajda oqilona foydalangan o'z asarlarida. Misol uchun E. Xemenguen, E. Tompson, O. Uyald, J. London kabi mashhur yozuvchilar adabiyot olamida peyzajdan mahorat bilan o'z asarlarida keltirgan va o'zgacha rang, o'zgacha hayot baxsh etgan.

Ernest Seton Tompson asarlari misolida ingliz tabiati yorqin aks ettirilgan. Ernest Tompson Seton tabiat va hayvonlar haqida yozgan ta'sirchan hikoyalari bilan shuhrat qozondi. Uning hayvonlar haqidagi hikoyalar to'plami rus tiliga N. Chukovskiy tomonidan tarjima qilingan va bu hikoyalar o'z navbatida ruschadan o'zbekchaga o'girilgan. O'zbek kitobxonlari orasida Thompson Setonning keng tarqalgan hikoyalar to'plami "Yovvoyi yo'rg'a" dir. Bu asarni o'zbek tiliga Tog'ay Murod tarjima qilgan. O'zbek kitobxoniga tanish bo'lgan bu asarda Yovvoyi bir ot butun bir podani o'zi bilan olib ketib qoladi. Natijada fermada bir-ikkita oyog'i singan, shu kabi otlardan boshqa ot qolmaydi. Otlar bir uyur bo'lib Keng yaylovlarda Katta Makkenzi ko'lidan suv ichib yana shu tarzda davom etadi. Tabiat manzarasi bu asarda otlar bilan birgalikda aks etadi. Yovvoyi yo'rg'ani tutish uchun qanchadan qancha odam qatiq bel bog'laydi, lekin natijada hech biri tuta olmaydi. Ernest Tompson Seton mahsuli juda ramziy. Shunday qilib, Mustang erkinlik va asolat ideal mujassamdir. Bu ham jismoniy, ham aqliy ideal. Shu zamonda inson bir-biridan uzoqlashib borsa, yovvoyi yo'rg'a o'z to'dasiga g'amxo'rlik qiladi. Insoniy fazilatlar ham jo qilingan ushbu asarda. Yana bir ingliz yozuvchisi Jek Londonning "Hayotga muhabbat" asaridan ushbu parchani kuzataylik: "U sovuq qotib, kasal bo'lib uyg'ondi. Quyosh ko'rinmasdi. Yer-u osmonning bo'z rang tusi yana ham quyuyqlashgan; qattiq shamol urib turar, birinchi yoqqan qor tepaliklarni oppoq tusga kiritgan. U o't yoqib, suv qaynatguncha, havo yana ham quyuyqlashgandek, yana ham oqargandek tuyuldi. Bu yog'ayotgan qorning ho'l laylak qorga aylanganidan edi. Qor boshida yerga tushgan zamon erib turdi, lekin borabora ko'payib, yerning usti qop bilan qoplana boshladi-da, qop quruq xas-cho'plarni ho'l qilib, o'zni o'chirdi. Bu unga yukini orqasiga ko'tarib, boshi oqqan tomonga yo'lga chiqish uchun belgi bo'ldi"¹. Bu tasvir orqali g'arb zaminida qishni aks ettirib berasi o'z asarida. Bu asarda ham insonning nafs kabi yomon hislati qorqlanadi. Bu esa sharq va g'arb adabiyoti uchun ham mosdir. O'zbek adabiyotida A.Cho'lpon, Sh. Xolmirzayev, O'. Hoshimov kabi bir qator shoir va yozuvchilar o'z asarlarida tabiatni o'zga'ga tasvirlaydi. Misol uchun Shukur Xolmirzayevning "Zov ostida adashuv" asaridan "Soyning sohilini qoplagan qamishlardan sal narida va sal berida chakalakzor, archazorlar. Ayniqsa narigi sohiddagi archa shu qadar zichki, ustidan bemalol yurish mumkindek tuyuladi. Ko'm-ko'k o'tloqning o'zi-ya!.. Muyulishga yetib to'xtadim. So'qmoqning adog'ini ko'ray

¹ Жек Лондон. Хаётга мухаббат. / Интернет сайти: <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/jek-london/hayotgamuhabbat/>

deb qaragandim, ro‘paramda ufqni qiyalab o‘tgan taqasimon tog‘ ko‘rindi. Dong qotib qoldim¹”. Ma‘lumki Shukur Xolmirzayev Surxon vohasida tug‘ilgan va u yerlarni madh etgan yozuvchidir.

Abdulhamid Cho‘lpon ham O‘zining “Kecha va Kunduz” romanida ham o‘lkamizning bahor tasvirini jonlantirib beradi. Hamal keldi, amal keldi”. Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko‘ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi...Tollarning ko‘m-ko‘k sochpopuklari qizlarning mayda o‘rilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi. Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g‘amli yuzlari kuldi, o‘zlari horg‘in-horg‘in oqsalar-da, bo‘shalgan qul singari erkinlik nash‘asini kemira-kemira ilgari bosadilar. Simyog‘ochlarning uchlarida yakka-yakka qushlar ko‘rina boshladi. Birinchi ko‘ringan ko‘klam qushi birinchi yorilgan bodroq nash‘asini beradi. Bultur ekilib, ko‘p qoshlarni qoraytirgan o‘sma ildizidan yana bosh ko‘tarib chiqdi... Muloyim qo‘llarda ivib, suvga aylangandan keyin go‘zal ko‘zlarning supasida yonboshlashni muncha yaxshi ko‘rar ekan bu ko‘kat! Erkaklarning gullik to‘ppisiga tegmay, yalang ayollar bilan, ularning sochlari, gajaklari va ro‘mol popuklari bilan hazillashib o‘ynagan salqin shabada...Ko‘klam nash‘asi bilan sho‘xlik qiladi. Har yili keluvchi bahor tarovvatini aks ettiradi ushbu asar.

Umuman olganda barcha xalqlar o‘z asarlarida tabiat qonuniyatlari asosida ish ko‘radi, bu tabiiylik hech qachon o‘zgarmaydi. Bu orqali asarning salmoqdorligi va emotsionalligi oshadi. Tabiat va inson hayoti bir biriga o‘zaro va chambarchas bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Жек Лондон. Ҳаётга муҳаббат. / Интернет сайти: <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/jek-london/hayotgamuhabbat/>
2. Холмирзаев Ш. Зов остида адашув. / Холмирзаев Ш. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Шарқ, 2003. – Б. 171.
3. <https://www.ziyouz.com/kutubxona>

¹ Холмирзаев Ш. Зов остида адашув. / Холмирзаев Ш. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Шарқ, 2003. – Б. 171.